



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil  
yanvar-sentabr*



## NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **1 090,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **14,7** ming kishiga yoki **1,4 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **536,5** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,2 %**), qishloq aholisi soni **553,5** ming kishi (**50,8 %**)ni tashkil etdi.

### Doimiy aholi soni

**1 090,0** ming kishi

### Tabiiy o'sish

**+16,0** ming kishi

### Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

#### Shahar



**49,2 %**


#### Qishloq



**50,8 %**


## Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-sentabr



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- oktabr holatiga



2024- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **31,2 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **12,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024- yil 1- oktabr holatiga




## Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, kishi

|                        | 2023- yil        | 2024- yil        | O'sish sur'ati,<br>% da |
|------------------------|------------------|------------------|-------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>1 070 562</b> | <b>1 090 047</b> | <b>101,8</b>            |
| <i>shaharlar:</i>      |                  |                  |                         |
| Navoiy sh.             | 160 051          | 165 274          | 103,3                   |
| Zarafshon sh.          | 87 866           | 89 982           | 102,4                   |
| G'ozg'on sh.           | 9 223            | 9 319            | 101,0                   |
| <i>tumanlar:</i>       |                  |                  |                         |
| Karmana                | 138 036          | 140 977          | 102,1                   |
| Konimex                | 37 395           | 37 244           | 99,6                    |
| Qiziltepa              | 161 126          | 163 952          | 101,8                   |
| Navbahor               | 120 399          | 122 312          | 101,6                   |
| Nurota                 | 89 280           | 90 472           | 101,3                   |
| Tomdi                  | 15 526           | 15 336           | 98,8                    |
| Uchquduq               | 39 207           | 39 525           | 100,8                   |
| Xatirchi               | 212 453          | 215 654          | 101,5                   |

## Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha **9,8** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2023- yilda 1 kv.km.ga **9,6** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4 499,1** kishi hamda Navoiy shahrida **2 754,6** kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,8** kishi va Konimex tumanida **4,0** kishini tashkil etgan.

## Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



## QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



### Tug'ilganlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-mart

O'g'il bolalar **2 987**      Qiz bolalar **2 884**



**50,9 %**      **49,1 %**

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi

|               |      |        |
|---------------|------|--------|
| Xatirchi      | 4000 | 24,9 ‰ |
| Navoiy sh.    | 3433 | 28,1 ‰ |
| Qiziltepa     | 2975 | 24,4 ‰ |
| Karmana       | 2525 | 24,1 ‰ |
| Navbahor      | 2125 | 23,4 ‰ |
| Nurota        | 1717 | 25,5 ‰ |
| Zarafshon sh. | 1603 | 24,0 ‰ |
| Uchquduq      | 557  | 18,9 ‰ |
| Konimex       | 531  | 19,0 ‰ |
| Tomdi         | 156  | 13,5 ‰ |
| G'ozg'on sh.  | 121  | 17,4 ‰ |

#### Yanvar-iyun

O'g'il bolalar **6 360**      Qiz bolalar **6 005**



**51,4 %**      **48,6 %**

#### Yanvar-sentabr


O'g'il bolalar **10 160**      Qiz bolalar **9 583**



**51,5 %**      **48,5 %**

2024- yil yanvar-sentabr oylarida **19 743** ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti **24,4** promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan **1,4** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilda **25,8** promilleni tashkil etgan).

## VAFOT ETGANLAR



### Vafot etganlarning taqsimlanishi


**Yanvar-mart**  
**Erkaklar** 658  
**Ayollar** 522



**55,8 %**      **44,2 %**

### Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



### Yanvar-iyun

**Erkaklar** 1 286  
**Ayollar** 963



**57,2 %**      **42,8 %**

### Yanvar-sentabr

**Erkaklar** 2 169  
**Ayollar** 1 582




**57,8 %**      **42,2 %**

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **3 751** ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,4** promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,2** promille bo'lgan).

## O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi


2024- yil yanvar-sentabr, kishi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **63,7 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,0 %** i – o‘simtalardan, **4,4 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **8,1 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,5 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,7 %** i – yuqumli va parazitari kasalliklardan, **11,6 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.





## QAYD ETILGAN NIKOHLAR



### Nikohlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-mart

Shahar  
598

Qishloq  
466



56,2 %

43,8 %

### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, birlik

|               |      |       |
|---------------|------|-------|
| Navoiy sh.    | 1178 | 9,6 ‰ |
| Xatirchi      | 1062 | 6,7 ‰ |
| Qiziltepa     | 812  | 6,7 ‰ |
| Karmana       | 763  | 7,3 ‰ |
| Navbahor      | 627  | 6,9 ‰ |
| Nurota        | 442  | 6,6 ‰ |
| Zarafshon sh. | 409  | 6,1 ‰ |
| Uchquduq      | 161  | 5,5 ‰ |
| Konimex       | 151  | 5,3 ‰ |
| Tomdi         | 37   | 3,2 ‰ |
| G'ozg'on sh.  | 27   | 3,4 ‰ |

#### Yanvar-iyun

Shahar  
1 502

Qishloq  
1 159



56,4 %

43,6 %

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 669 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,0 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 7,4 promille bo'lgan).

#### Yanvar-sentabr

Shahar  
3 059


Qishloq  
2 610



54,0 %

46,0 %

## NIKOHDAN AJRALISHLAR



### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, birlik

|               |     |       |
|---------------|-----|-------|
| Navoiy sh.    | 205 | 1,7 ‰ |
| Karmana       | 166 | 1,6 ‰ |
| Xatirchi      | 163 | 1,0 ‰ |
| Qiziltepa     | 134 | 1,1 ‰ |
| Zarafshon sh. | 69  | 1,0 ‰ |
| Navbahor      | 67  | 0,7 ‰ |
| Nurota        | 46  | 0,7 ‰ |
| Uchquduq      | 33  | 1,1 ‰ |
| Konimex       | 26  | 0,9 ‰ |
| Tomdi         | 4   | 0,3 ‰ |
| G'ozg'on sh.  | 1   | 0,1 ‰ |

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **914** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,1** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan **0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yil yanvar-sentabr oylarida **1,4** promille bo'lgan).

### Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-mart

Shahar  
175

Qishloq  
135



56,5 %

43,5 %

#### Yanvar-iyun

Shahar  
342

Qishloq  
246



58,2 %

41,8 %

#### Yanvar-sentabr

Shahar  
529

Qishloq  
385




57,9 %

42,1 %


## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-sentabr




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **49,0 %** i farzandsiz, **29,3 %** i bitta farzand bilan va **21,7 %** i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

## JAMI KO'CHIB KELGANLAR



### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 9 262 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 11,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 10,3 promille bo'lgan).

### Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-mart

Erkaklar 1 457  
Ayollar 1 451



50,1 % 49,9 %

#### Yanvar-iyun

Erkaklar 2 950  
Ayollar 2 975



49,8 % 50,2 %


#### Yanvar-sentabr

Erkaklar 4 528  
Ayollar 4 734




48,9 % 51,1 %

## JAMI KO'CHIB KETGANLAR



### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida **10 475** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **12,9** promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,8** promille bo'lgan).

### Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

#### Yanvar-mart

Erkaklar **1 471**      Ayollar **1 469**



**50,0 %**      **50,0 %**

#### Yanvar-iyun

Erkaklar **3 103**      Ayollar **3 223**



**49,1 %**      **50,9 %**

#### Yanvar-sentabr

Erkaklar **5 100**      Ayollar **5 375**



**48,7 %**      **51,3 %**

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1 000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1 000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1 000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi**

*Tel: 79 223-07-41*